

GIPERTONIYA KASALLIGI: YOSHGA QARAB DAVOLASH

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti
davolash ishi yo'nalishi 3 - kurs talabasi
Abdurahmonova Dilnoza*

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada arterial gipertoniya kasalligini yoshga qarab davolash tamoyillari ilmiy jihatdan yoritilgan. Yoshlik, o'rta va keksalik davrida kasallikning rivojlanish xususiyatlari, klinik ko'rinishlari, farmakologik yondashuvlar, shuningdek, hayot tarzini o'zgartirishga asoslangan tavsiyalar tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, turli yoshdagি bemorlarda dorilarning individual tanlovi, qo'shimcha kasalliklar bilan birgalikda gipertoniyanı davolash yondashuvlari bayon etilgan.

KALIT SO'ZLAR Gipertoniya, yoshga qarab davolash, arterial bosim, ACE-ingibitorlar, kalsiy antagonistlari

Arterial gipertoniya – bu arteriyalardagi qon bosimining doimiy yuqoriligi bilan xarakterlanuvchi surunkali kasallikdir. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi orasida har uchinchi inson gipertoniyanadan aziyat chekadi. O'zbekistonda ham gipertoniya yurak-qon tomir tizimi kasalliklari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Gipertoniyaning kechish sur'ati, klinik ifodalanishi va davolash strategiyasi bemorning yoshi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun yoshga qarab individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda (18–40 yosh) gipertoniyanı davolash. Yoshlik davrida arterial gipertoniya ko'pincha simptomlarsiz kechadi va tasodifan aniqlanadi. Bunda quyidagi jihatlar e'tiborga olinadi: Asosiy sabablari: stress, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faoliik yetishmasligi.

Davolash tamoyillari: Hayot tarzini o'zgartirish (ovqatlanish, sport, chekishni tashlash) Dastlabki bosqichda monoterapiya: ACE-ingibitorlar (enalapril, ramipril) Beta-blokatorlar (yurak urishi tez bo'lsa) Yoshlarda doriga bo'lgan sezuvchanlik yuqori bo'lib, kam doza bilan boshlanadi.

O'rta yoshli bemorlarda (40–60 yosh) davo strategiyasi. Bu yosh guruhidá gipertoniya ko'pincha metabolik sindrom, qandli diabet, dislipidemiya kabi kasalliklar bilan kechadi. Ko'p hollarda politerapiya talab etiladi: ACE-ingibitor + kalsiy antagonist (amlodipin) Diuretiklar (gipotiazid) ARB (losartan) – ayniqsa qandli diabetli bemorlarda Qo'shimcha chora-tadbirlar: Tuzni cheklash Qon lipid darajasini nazorat qilish Yurak ish faoliyatini kuzatib borish .Keksalikda gipertoniya yurak yetishmovchiligi, insult, buyrak yetishmovchiligi xavfini oshiradi. Ammo ularni davolashda ehtiyyotkorlik zarur. Xususiyatlari: Arteriyalarning elastikligi kamayadi

Ortostatik gipotensiya xavfi mavjud Ko‘p dorilarni birlgilikda qabul qilish (polifarmatsiya) Davo yo‘nalishlari: Kam doza bilan boshlash – “start low, go slow” Kalsiy antagonistlari (amlodipin) – qon bosimni sekin pasaytiradi Diuretiklar – gemodinamik yukni kamaytiradi ACE-ingibitorlar – buyrak funksiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi Eslatma: Yurak, buyrak yoki miya qon aylanishining yetarli darajada ta’milishini kuzatib borish muhim. Qon bosimi darajasi Tashxis Dori vositalari Qo‘sishimcha tavsiyalar 130–139 / 85–89 mmHg Oldingi gipertoniya Hayot tarzini o‘zgartirish Sport, tuzni kamaytirish 140–159 / 90–99 mmHg I-darajali Monoterapiya Nazorat 1-2 oyda 160–179 / 100–109 mmHg II-darajali 2 yoki 3 dori kombinatsiyasi Doimiy monitoring ≥ 180 / ≥ 110 mmHg III-darajali (og‘ir) Shoshilinch davo Kasalxonaga yotqizish

XULOSA

Gipertoniya davolashida yoshga qarab yondashuvning ahamiyati beqiyos. Har bir yoshda kasallikning rivojlanish mexanizmi, klinik ko‘rinishi va dori preparatlariga bo‘lgan sezuvchanlik har xil bo‘ladi. Shuning uchun davo individual tarzda, bemorning yoshi, umumiy holati, hamroh kasalliklarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Bunda hayot tarzini sog‘lomlashtirish va dori vositalarining dozasini to‘g‘ri tanlash asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (WHO). Hypertension Guidelines, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi SSV. "Arterial gipertoniya bo‘yicha klinik protokol", Toshkent, 2022.
3. Mancia G., et al. "2023 ESH/ESC Guidelines for the management of arterial hypertension". European Heart Journal.
4. Chobanian AV, et al. "The Seventh Report of the Joint National Committee (JNC 7)", Hypertension, 2023.
5. Harrison's Principles of Internal Medicine, 20th Edition.